



## Anafora hodisasining Enaxon Siddiqova ijodidagi o‘rni

Dilnavoz Abdurahimova

Farg‘ona davlat universiteti talabasi

### Annotatsiya

Ushbu maqolada anafora hodisasi haqida fikr yuritiladi. Uning poetik sintaksis hodisasi ekanligiga urg‘u beriladi. Enaxon Siddiqova ijodidagi qo‘llanish o‘rni, stilistik xususiyatlari tahlil qilindi.

**Kalit so‘zlar:** poetika, komponent, leksik-morfologik anafora, sintaktik anafora.

### Annotation

This article discusses the phenomenon of anaphora. It is emphasized that it is a phenomenon of poetic syntax. The place of its use in the work of Enakhon Siddikova and its stylistic features are analyzed.

**Key words:** poetics, component, lexical-morphological anaphora, syntactic anaphora.

### Аннотация

В данной статье рассматривается явление анафоры, подчеркивается, что это явление поэтического синтаксиса, анализируется место его употребления в творчестве Энахон Сиддиковой и его стилистические особенности.

**Ключевые слова:** поэтика, компонент, лексико-морфологическая анафора, синтаксическая анафора.

Anafora — yuqoriga ko‘ tarilish degan ma‘noni bildiradi. Bunda har bir misra, abzas va gap boshida bir xil takrorlanuvchi konstruksiyalar ishlatiladi. Bular so‘z, so‘z birikmasi, gap shaklida bo‘lishi mumkin. Anaforalar qo‘llanish doirasi jihatidan ko‘proq poetik asarlar tilida uchrashi tufayli, ularni tradatsiyaga ko‘ra, ko‘pincha, poetik sintaksis masalalaridan biri sifatida tahlil qilinadi.<sup>1</sup>

Anafora sintaktik konstruksiyani tashkil etuvchi komponentlar (sodda gaplar) ning bir xil grammatik forma bilan boshlanish usulidir. Aynan bir tushunchaning ma‘nosini yoki fikrning mazmunini kengroq yoritish, unga urg‘u berish, bo‘rttirish, tinglovchining diqqatini ana shu tushunchaga yoki fikrga alohida jalb qilish lozim bo‘lsa, anaforalardan foydalaniladi.

Anaforik bog‘lanish – bu fikr qaratilgan obyektни turli nutq birliklari yordamida “takroran eslatish”<sup>2</sup> usulidir.

Anafora his-hayajon, ko‘tarinki ruh bilan aytiladigan nutq ko‘rinishlari uchun xarakterlidir. Anafora o‘quvchida yoki tinglovchida turli “emotsiyalarni uyg‘otuvchi ifoda shaklidir”<sup>3</sup>.

Anaforalarni uning struktural ko‘rinishlariga asoslangan holda, ikkiga bo‘lish mumkin:

1. Leksik- morfologik anaforalar.
2. Sintaktik anaforalar.

Leksik-morfologik anaforalar rus tilida nashr etilgan ba‘zi adabiyotlarda leksik anaforalar deb izohlanadi.<sup>4</sup> Leksik-morfologik anaforalar sintaktik konstruksiyani tashkil etuvchi komponentlarning

<sup>1</sup> Кожина М.Н. Стилистика русского языка. – М., 1977, с. 152.

<sup>2</sup> Смирнова Н.Н. Анафорические связи в русском языке. Автореф.дисс....канд.филол.наук. – М., 1972, с.

<sup>3</sup> Рубайло А.Т. Художественные средства языка. – М., 1961, с.56

<sup>4</sup> Розенталь Д.Е. Практическая стилистика русского языка. – М., 1974, с.343



bir xil so‘ z yoki so‘ z formalari bilan boshlanishi demakdir. Ya’ ni bunday konstruksiyalarda bir xil leksik-morfologik forma har bir komponentning boshlanish qismida aynan takrorlanadi.

Leksik-morfologik anaforalar qo‘ shma gapda, ayniqsa, bog‘ lovchisiz hamda bog‘ langan qo‘ shma gaplarning sodda va murakkab ko‘ rinishlarida, nutqning murakkab birligi – superfrazali sintaktik butunliklarda asosiy sintaktik-stilistik vosita hisoblanadi:

Masalan,

*Birga tug‘ ilmoq bor, birga turmoq yo‘ q.*

*Sizni qarg‘ amoqqa yetmaydi kuchim,*

*Sizni ayblamoqqa yo‘ q menda asos.*

*Sizni telbalarday sevgani uchun,*

*Endi bu yurakdan olaman qasos.*

(Enaxon Siddiqova “ Alam” )

*Bir quyoshki, munavvardir nazmi ko‘ k,*

*Bir sharafki, shariflar ichra o‘ zbek,*

*Bir ummonki, o‘ zani ezgulik, erk,*

*Ozodlikning mayog‘ idir Navoiy*

(Enaxon Siddiqova “ Navoiy tug‘ ilgan kunda” )

*Uzun yig‘ i kelar qati qatingdan,*

*Uzun yig‘ ilardan qurigan ko‘ zim.*

*Bug‘ doyzorlaringni toptaganlarga*

*Bug‘ doy nonlar tutgan o bug‘ doy so‘ zim!*

(Enaxon Siddiqova “ Ona tilim” )

Leksik-morfologik anaforalar, deyarli, hamma mustaqil so‘ z turkumi orqali ifodalanishi mumkin. Anaforalarning gapda ma’ lum bir funksiyani bajarishi anaforalari konstruksiyalarni oson tasnif qilish imkoniyatini tug‘ diradi.<sup>5</sup>

Sintaktik konstruksiya tarkibidagi anaforaning mavjud bo‘ lishi ana shu konstruksiyaning tipini hamda strukturasi belgilovchi omil bo‘ lib hisoblanadi.

2. Sintaktik anaforalar. Birdan ortiq so‘ zlarining semantik hamda grammatik mosligi natijasida yuzaga kelgan anaforalari sintaktik anaforalari deyiladi. Sintaktik anaforalari o‘ zbek tilshunosligida, umuman o‘ rganilmagan.

Anaforalarning bu turini sintaktik hodisalar tabiatidan kelib chiqib, ikkiga bo‘ lib o‘ rganish mumkin: so‘ z birikmasi holiday anaforaga yoki anaforik so‘ z birikmasi va predikativ birlik xarakteridagi anafora yoki anaforik predikativ birlik.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. А. Мамажонов У. Махмудов. Услужий воситалар. “Фарғона” - 1996
2. А. Мамажонов Қўшма гап стилистикаси. “Фан”нашриёти, 1990 й.
3. Абдурахмонов Ф. Қўшма гап синтаксиси асослари. –Т., 1958.
4. Бердиалиев А. Ўзбек тили эргаш гапли қўшма гапларида синтактик алоқа ва синтактик муносабатлар. –Т.: “Университет” нашриёти, 1995.
5. Enaxon Siddiqova Sizni dedim. Toshkent “ADABIYOT”, 2021

<sup>5</sup> Солганик Г.Я. Синтаксическая стилистика. –М., 1973, с.162